


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

61010500 – *Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari)*
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «23» 08 dagi 438 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanishi</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i>	4
1.2.1.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i>	4
1.2.2.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i>	4
1.2.3.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari</i>	6
2.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i>	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya	10
2.3.2.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar taqsimoti</i>	11
2.3.3.	<i>61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi</i>	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	12
	Kelishuv varag'i	13

1. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

61010500– Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi (boshqarma) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) xizmat ko'rsatish sohadagi yo'nalish bo'lib, gid hamrohlik ishi, og'zaki izchil tarjima va sinxron tarjima masalalari, tarjimashunoslik, lingvistikaga oid tadqiqotlar o'tkazish, gid hamrohlik istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan ilmiy va tarjimonlik sohalariga doir usullar, uslublarni ishlab chiqish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun tarjima bo'yicha xizmat ko'rsatish, xalqaro tashkilotlar, turli davlat va nodavlat muassasalarida tarjima tizimini tashkillashtirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi, O'zbekiston Iqtisodiyot vazirligi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimliklar va boshqa davlat idoralari, muassasalarining iqtisodiy boshqarma va bo'limlari;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi vakolatxonalari va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari;
- iqtisodiyot va biznes yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari;
- turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, davlat muassasalari, mamlakat va xalqaro faoliyat bilan bog'liq bo'lgan nodavlat va davlat tizimlari;
- tarjimonlik faoliyati;
- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va texnikumlari (qayta tayyorlashdan so'ng);
- ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar.

61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) – xizmat ko'rsatish sohadagi yo'nalish bo'lib, ekskursiya byurosi asosiy, ma'muriy-xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ustidan umumiy rahbarlik qilish, ekskursiya byurosi tuzilmaviy bo'linmalari ishini tashkillashtirish va hamkorligini yo'lga qo'yish, ishning kundalik va istiqbol rejalarini tasdiqlash va ularning ijrosi ustidan nazorat qilish, ekskursiya marshrutlari dasturlari va texnologik hujjatlari ishlab chiqilishini tashkillashtirish, ekskursiya byurosi faoliyati bilan bog'liq sharoitlarni belgilash va shartnomalar tuzish, ekskursiya byurosi ishida muammolar tahlili bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, ekskursiya bo'linmalari marketing strategiyasini shakllantirish, ekskursiya bo'linmasi marketing rejasi va dasturini ishlab chiqish, ekskursiya bo'linmasi marketing tannarx strategiyasini belgilash, og'zaki izchil tarjima va sinxron tarjima masalalari, tarjimashunoslik, lingvistikaga oid tadqiqotlar o'tkazish, gid hamrohlik istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan ilmiy va tarjimonlik sohalariga doir usullar, uslublarni ishlab chiqish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun tarjima bo'yicha xizmat ko'rsatish, xalqaro tashkilotlar, turli davlat va nodavlat muassasalarida tarjima tizimini tashkillashtirish bilan bog'liq kompleks masalalarni yechish, tashkiliy boshqaruv, muharrirlik, OAVda tarjimonlik, ilmiy-tadqiqot, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta-maxsus, professional ta'lim tizimining mos ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini yangilangan holda ishlab chiqishda hisobga olinadi.

1.2.3. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- gid hamrohlik faoliyati;
- tarjimonlik faoliyati;
- tarjimonlik va muharrirlik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- OAVda tarjimonlik faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- turagentlik va administratorlik faoliyati;
- maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimining mos ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati (qayta tayyorlashdan so'ng).

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari, turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Gid hamrohlik va turagentlik faoliyatida:

- turistik korxonada tuzilmaviy bo'linmasi rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishi bilan rahbarlik qila olishi;

- turistik korxonada tuzilmaviy bo'linmasi mehnat faoliyatining ratsional tashkillashtirish bo'yicha ishni tashkillashtira olish;

- turistik korxonada ekskursion bo'linmasi tasdiqlagan rivojlanish strategiyasiga muvofiq loyihalar realizatsiyasini ta'minlay bilish;

- turizm sohasini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlar realizatsiyasini ta'minlay bilish;

- O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish ilg'or yo'nalishlarini belgilay olish;

- ishning kundalik va istiqbol rejalarini tasdiqlash va ularning ijrosi ustidan nazorat;

- ekskursiya marshrutlari dasturlari va texnologik hujjatlari ishlab chiqilishini tashkillashtirish;

- ekskursiya byurosi faoliyati bilan bog'liq sharoitlarni belgilash va shartnomalar tuzish;

- ekskursiya byurosi ishidagi muammolar tahlili bo'yicha ishlarni tashkillashtirish;

- ekskursiya bo'linmalari marketing strategiyasini shakllantirish;

- ekskursiya bo'linmasi marketing rejasi va dasturini ishlab chiqish;

- ekskursiya bo'linmasi marketing tannarx strategiyasini belgilash;

- turistik firmalarda turagentlik faoliyati bilan shug'ullanish;

- sayyohlar uchun turpaketlar tuzish va marketingini amalga oshirish;

- xorij sayyohlik firmalari bilan yozishmalar olib borish va hamkorlik shartnomalarini tuzish;

- sayyohlik dasturlarining umumiy narxini ishlab chiqish;

- mehmonxonada administratorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

- mehmonlar uchun xonalarni bron qilish, bronni bekor qilish;

- mehmonlar bilan kasb etikasi doirasida muloqot qilish;

- mehmonlar bilan sodir bo'ladigan muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqarish;

- mehmonxona xo'jaligida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash;

Tarjimonlik faoliyatida:

- tarjima jarayonida tarjimaning nazariy asoslari bilan qatnashish, tarjimaning grammatik, leksik, frazeologik, stilistik va pragmatik muammolari, tarjima tiplari, leksik muqobillik, tarjimada qo'llaniladigan asosiy metodlar haqida to'la tasavvurga ega bo'lish;

- tarjimonlik sohasida tarjima tarixida yuzaga kelgan muammolar va olimlarning tarjimachilik haqidagi bahslari, fikr-mulohazalari, tarjima sohasida yaratilgan asosiy metodlar, qadimgi davr tarjimonlari va tadqiqotchilarning tajribalarini o'rganish, tarjimashunoslik sohasida mavjud bo'lgan bahslar haqida asosiy masalalarni o'rganish, tarjimoni xolisona baholay olish va

tahlil qilish, yozma, og'zaki va vizual tarjimaning asosiy xususiyatlarini o'rganish malakalariga ega bo'lish;

- tarjima sohasida tarjima nazariyasi va tarixi sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, tarjima tarixida buyuk tarjimonlar yaratgan tajriba va uslublarini hozirgi zamon tarjimachiligiga tatbiq eta olish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni bilish, tarjimashunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, olingan nazariy bilimlarni asarlar tarjimasida qo'llay olish, tarjimada til vositalarini ongli ravishda tanlash, leksik, semantik, frazeologik uslubiy matnlarning o'ziga xosliklarini ona tili va chet tillarida inobatga olish malakasini egallashga imkon yaratishni bilishi va ulardan foydalana olish;

- tarjima va ta'lim sohalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni egallash va tatbiq etishni turli sohalarida chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og'zaki va yozma tarjimani, vizual, sinxron, terminologik, ketma-ket tarjimani bilish.

Tarjimonlik va muharrirlik faoliyatida:

- turli matnlarni tarjima qilish va ularni tahrir qilishni bilish;
- tarjima qilingan matnlarni tahrir qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- tahrir qilingan materiallarni nashr etishga tayyorlash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- maorif, madaniyat, turizm sohalarida tarjimon sifatida ish yuritish;
- ta'lim sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni rejalashtirish;

- axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos keladigan ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ta'lim jarayonida sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

- ta'lim jarayonida atrof-muhitni va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish.

Ommaviy axborot vositalaridagi tarjimonlik faoliyatida:

- xorijiy tillarda nashr etiladigan gazeta va jurnallar uchun maqolalarni tarjima qilish;
- ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy tillarda e'lon qilinadigan maqolalarni tarjima qilish;
- radio va televideniya xorijiy tillarda tayyorlanadigan dasturlarni olib boruvchi suxandonlik qilish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha metodlar, dasturiy yechimlar, yangi tadqiqotlar qilish va ishlab chiqish;

- namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;

- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimining mos ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati (qayta tayyorlashdan so'ng):

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim tizimi muassasalari hamda professional ta'lim muassasalari va texnikumlarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari hamda o'rganilgan xorijiy tillardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

- ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish *qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.*

2. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan umumiy talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lish, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo'lishi;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimalashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda turistik korxonalar (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- strategik va operatsion rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish faoliyatiga ta'luqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- buxgalteriya siyosati va turistik tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish;
- o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga va professionalizmga ega bo'lish;
- terminologik tarjima ishlarini va xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- badiiy tarjima ishlarini tashkil etish;
- o'rgatilayotgan tillarni jadallashgan usulda o'rgatish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilish;
- xalqaro konferensiyalarda sinxron, vizual, ketma-ket tarjima qila olish;
- ilm-fan taraqqiyoti asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni bilish va ulardan foydalana olish;
- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;
- xorijiy tillarining hozirgi zamon adabiy shaklida turli xil murakkablikdagi matnlarni yozma va og'zaki tarjima qilishni usul va yo'llarini bilish; turli mavzu va murakkablikdagi matnlarni ona tilidan xorijiy tillarining hozirgi zamon adabiy shaklida yozma tarjima qilishni bilish;
- xorijiy tillarda suhbat olib borishni, nutq so'zlashni bilish; chet tilidan ona tiliga suhbat, nutq va so'zga chiqishlarni ketma-ket va sinxron tarjima qilish;
- chet tilida yozilgan manbalardan ma'lumotlar to'plab annotatsiya, referat, yozish va ularni tarjima qilishni bilish; tilning belgilar tizimi ekanligini, til va jamiyat, til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni anglash;
- tilning ichki qurilishi va tilni rivojlantirishga olib keladigan tashqi omillarni ajrata bilish; tillarning tasnifi va ularning tamoyillari; tilshunoslik tarixidagi asosiy yo'nalishlar va maktablar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- soha bo'yicha mavjud yangi ma'lumotlardan ilmiy ishlarda samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish; chet tilida so'zlashuvchi xalqning tarjima sohasida

erishgan tajribasi, qadimiy tarjima maktablari va ularning fan, madaniyatga qo'shgan hissalarini bilish;

- amaliy tarjimada keng qo'llanadigan tarjima transformatsiyalarini, ularning turlarini, qo'llanadigan tegishli o'rinlarini, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish usullarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish;
- so'z va iboralarni gapga aylantirishni bilish; amaliy tarjimada uchraydigan leksik, grammatik, fonetik, grafik muammolarini tarjimada berish; leksikologiya va stilistika va matn tahlili bo'limlariga oid bilimlarga ega bo'lish hamda undan tarjima jarayonida umumli va tegishli o'rinlarda to'g'ri foydalanish;
- umumiy tilshunoslikning sohasi, maxsus til vositalari, stilistik usullar va funksional uslublarni va matn uslublari, janr va turlarini tarjima jarayonida hisobga olish, tarjima qilingan matnning uslubini aniqlashni, qiyosiy tahlil qilishni bilish;
- xorijiy tillarda xorijiy mutaxassislar bilan kasbiy va maishiy vaziyatlar mavzusida jonli muloqot olib borish;
- yangi informatsion texnologiyalardan kasbga yo'naltirilgan maqsadlarda foydalana olish;
- sinxron, ketma-ket va badiiy tarjima bo'yicha yetarli darajada amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalari, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yorlamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

o'quv-tanishuv amaliyoti – turizm sohasiga tegishli tarmoqlar bilan tanishish hamda umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlashni nazarda tutadi;

malaka amaliyoti – turizm sohasida faoliyat turlari bilan tanishish, jarayonlarda bevosita ishtirok etish asosida amaliy ko'nikmalar hosil qilish hamda fanlardan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan;

tarjimonlik amaliyoti – ixtisosligi bo'yicha o'rganilayotgan xorijiy tilning hozirgi zamon adabiy shaklida turli xil murakkablikdagi matnlarni yozma va og'zaki tarjima qilishning usul va yo'llarini bilish, turli mavzu va murakkablikdagi matnlarni ona tilidan xorijiy tillarining hozirgi zamon adabiy shaklida yozma tarjima qilishni bilish, xorijiy tillarda suhbat olib borishni, nutq so'zlashni bilish, chet tilidan ona tiliga suhbat, nutq va so'zga chiqishlarni ketma-ket va sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini egallashga mo'ljallangan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: gid-tarjimon, turagent

2.3.2. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari)
ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar taqsimoti

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4560	152
Tanlov fanlar	1740	58
Malakaviy amaliyot	780	26
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4
Jami	7200	240

2.3.3. 61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari)
bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4560	152	
1.01	MTFK1106	Mehmondo'stlik va turizm faniga kirish	180	6	1
1.02	O'LKSH1103 /O'IYSA1103	O'lkashunoslik/ O'zbekiston va Ipak Yo'li: san'at va arxeologiya	180	3/3	1
1.03	MMUL1106	Madaniyatlararo muloqot	180	6	1
1.04	TUCHT1106	Turizm uchun chet tili (roman german tillari)	180	6	1
1.05	TO'MTM1106	Tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi va madaniyati	180	6	1
1.06	O'ZBT1206	O'zbekistonning eng yangi tarixi	180	6	2
1.07	IQTA1206	Iqtisodiyot asoslari	180	6	2
1.08	O'YA1206	O'qish va yozish amaliyoti	180	6	2
1.09	JAHT1203/ JHO'1203	Falsafa/Dinshunoslik	180	6	2
1.10	O'TIY1206	O'zbek tilida ish yuritish	180	6	2
1.11	TNA1306	Tarjima nazariyasi va amaliyoti	180	6	3
1.12	O'TMM1306	O'zbekistonning tarixiy-me'moriy merosi	360	12	3-4
1.13	KKT1306	Ketma-ket tarjima	180	6	3
1.14	DZM1406	Diniy va ziyorat merosi	180	6	5
1.15	MUZK1406	Muzeyshunoslikka kirish	180	6	4
1.16	TURQ1406	Turizm qonuni	180	6	4
1.17	TO'MA1506	Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti	360	12	5-6
1.18	STAR1606	Sinxron tarjima	300	10	7-8
1.19	GFAM1706	Gidlik faoliyati, axloqi va metodikasi	180	6	6
1.20	TCHT1706	Tadbirkorlikda chet tili (roman-german tillari)	360	12	7-8
1.21	PKT1706	Professional kontekstda tarjima	300	10	5-6
2.00		Tanlov fanlar	1740	58	3-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1740	58	3-8
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	780	26	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55



OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Gid, tarjimonlik, xalqaro va ichki turizm, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv reja, fanlar dasturi, bakalavriat, o'quv jarayoni, tarjima nazariyasi, tarjima amaliyoti, vizual tarjima, terminologik tarjima, she'riy tarjima, ketma-ket tarjima, shivirlab tarjima qilish, sinxron tarjima, shevashunoslik, magistratura, ilmiy-tadqiqot ishi, xizmat ko'rsatish, tashkiliy-boshqaruv, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ekskursiya xizmatlari, transport xizmatlari, mehmonxona xo'jaligi, turopereyting, menejment, marketing, turagent, administrator, pedagog.


Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQILGAN:

 "Paxtakor" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
Birinchi prorektor  J.D. Eltazarov
2023 yil « _____ » _____
M.O.


KELISHILGAN:


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  Sh. Yakubov
2023 yil « _____ » _____
M.O.

Samarqand davlat chet tillar instituti
Rektor v.v.b.  F. Ruzikulov
2023 yil « _____ » _____
M.O'.

Samarqand viloyati
Madaniyat va turizm boshqarmasi
Boshqarmaning i'roqchilik'i o'rinbosari  D. Narziqulov
2023 yil « _____ » _____
M.O.


"Dinara tour service" turistik firmasi direktori
Direktor  F. Muhammadjonov
2023 yil « _____ » _____
M.O.

Termiz davlat universiteti rektori
Rektor  A. Maraximov
2023 yil « _____ » _____
M.O'.

Namangan davlat chet tillar instituti rektori
Rektor  R. Karimov
2023 yil « _____ » _____
M.O.

M.O'.

Andijon chet tillari instituti

Rektor  **D.A.Rustamov**

2023 yil « _____ » _____

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari)
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasini
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste‘molchilari o‘rtasidagi
KELISHUV DALOLATNOMASI

Samarqand sh.

“ _____ ” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Samarqand davlat chet tillar instituti rektori v.v.b. F.SH.Ruzikulov, Termiz davlat universiteti rektori A.R.Maraximov, Buxoro davlat universiteti rektori O.X.Xamidov, Namangan davlat chet tillari instituti rektori R.G.Karimov, Andijon davlat chet tillari instituti rektori D.A.Rustamov, Samarqand viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari D.Narzikulov, “Dinara tour service” turistik firmasi direktori F.Muhammadjonov, hamda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti birinchi prorektori J.D.Eltazarov birgalikda IYTMMXU ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi malaka talablari va o‘quv rejasining mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

61010500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (roman-german tillari)
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

Malaka talablari hamda o‘quv rejasining ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF – 5847-sonli, 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” to‘g‘risidagi PF-27-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-200-son Qarori, 2023-yil 5-iyundagi “2023/2024-o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” gi F-31-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta‘limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 259-son buyrug‘i hamda oliy ta‘lim sohasini tart-

ibga soluvchi boshqa normative-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shuningdek, xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori v.v.b.



F. SH. Ruzikulov

F.SH.Ruzikulov

Termiz davlat universiteti rektori



A.R.Maraximov

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

Namangan davlat chet tillari instituti rektori



R.G. Karimov

R.G.Karimov

Andijon chet tillari instituti rektori



D.A. Rustamov

D.A.Rustamov

Samarqand viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari



D. Narzikulov

D.Narzikulov

"Dinara tour service" turistik firmasi direktori



F. Muhammadjonov

F.Muhammadjonov

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti birinchi prorektori



J.D. Eltazarov

J.D.Eltazarov